

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOTINSTITUTI
GEOLOGIYA VA KONCHILIK ISHI FAKULTETI
“KONCHILIK ISHI” KAFEDRASI

Ro‘yxatga olindi: № _____ 2022 y. “ ____ ” _____	“TASDIQLAYMAN” O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor: _____ O.N.Bozorov “ ____ ” _____ 2022 y.
--	--

FOYDALI QAZILMALARNI BOYITISH VA QAYTA ISHLASH ASOSLARI
fanining

ISHCHI O‘QUV DASTURI
(SILLABUSI)

Bilim sohasi	700000	-	Muhandislik ishlov berish va qurilish sohalari
Ta’lim yo‘nalishi:	710000	-	Muhandislik ishi
	720000	-	Ishlab chiqarish va ishlov berish sohalari
Ta’lim yo‘nalishi	60721500	-	Konchilik ishi (ochiq konchilik ishlari)
		-	Konchilik ishi (yer osti konchilik ishlari)

QARSHI 2022 - y.

Fan (modul) kodi FQBQIA2306		O'quv yili 2022-2023	Semestr 3	ECTS krediti 6
Fan/modul turi Tanlov		Ta'lim tili O'zbek/rus	Haftadagi dars soatlari 6	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat) 180
	Foydali qazilmalarni boyitish va qayta ishlash asoslari	90	90	180
2.	I. Fanning mazmuni. 1.1 Fanni o'qitish maqsadi va vazifalari: Talabalarning “Foydali qazilmalarni boyitish va qayta ishlash asoslari” fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion – pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual stendlar hamda ishchi holatdagi mashinalarning ishlab chiqarishdagi namunalari va maketlaridan foydalaniladi. Ma'ruza, amaliy va laboratoriya darslarida mos ravishdagi ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi. Fan bo'yicha ma'ruza matnlarini tayyorlashda chet mamlakatlar, jumladan Hamdo'stlik mamlakatlarida yangi chop etilib. “Internet” tizimi orqali tarqatilgan elektron darsliklar, o'quv qo'llanmalar va ma'ruza matnlaridan foydalaniladi. Shuningdek, ma'ruzalarni o'tishda elektron ma'ruzalardan, mavzularga mos multimediali slaydlar va videofilmlardan foydalanish ko'zda tutiladi. “Foydali qazilmalarni boyitish va qayta ishlash asoslari” fanining ishchi o'quv dasturi ushbu fanning O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan o'quv dasturlari asosida yaratildi. Uni ishlab chiqishda ta'lim sohasidagi meyoriy – huquqiy, uslubiy hujjatlar, uni rasmiylashtirish, tasdiqlash, amalga kiritish qoidolari va talablari hisobga olingan. “Foydali qazilmalarni boyitish va qayta ishlash asoslari” fani talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyo qarashni shakllantirish vazifalarini bajarish. Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. Talaba: - talabani ushbu fan bo'yicha olgan nazariy va amaliy bilimlarini boyitish fabrikalarida qo'llash bo'yicha ko'nikmalar hosil qilishdir. Jumladan, konchilik sanoati boyitish va qayta ishlash asoslari, boyitishga tayyorlash, asosiy va yordamchi jarayonlari, boyitish usullarini qo'llash; - foydali qazilmalarni boyitish asoslari, foydali qazilmalarni qayta ishlash va boyitish asoslari ko'nikmalarini hosil qilishdir.			

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**Fan tarkibi mavzulari:**

№	Mavzular	soat
1-modul. Asosiy tushunchalar		4
1-ma'ruza	Kirish. Foydali qazilmalarni boyitishning xalq xo'jaligidagi ahamiyati	2
2-ma'ruza	Boyitishning texnologik ko'rsatkichlari	2
2-modul. Elash jarayoni		4
3-ma'ruza	Elash jarayonining asoslari	2
4-ma'ruza	Elaklarning turlari, tuzilishi va ishlash prinsiplar	2
3-modul. Maydalash jarayoni		6
5-ma'ruza	Maydalash haqida umumiy ma'lumotlar	2
6-ma'ruza	Maydalash darajasi, maydalash bosqichlari va maydalash usullari	2
7-ma'ruza	Maydalash mashinalarining tasnifi va ularning ishlash prinsiplari	2
4-modul. Yanchish jarayoni		6
8-ma'ruza	Yanchish haqida tushuncha. Rudalarning yanchiluvchanligi	2
9-ma'ruza	Barabanli tegirmonlarning ishlash tartibi.	2
10-ma'ruza	Sharli va steijenli tegirmonlarning tuzilishi hamda ishlash prinsipi	2
5-modul. Klassifikatsiya jarayoni		4
11-ma'ruza	Klassifikatsiya jarayoni haqida umumiy ma'lumotlar	2
12-ma'ruza	Klassifikatorlarning turlari va ularning ishlash tartibi	2
6-modul. Gravitatsiya usulida boyitish		10
13-ma'ruza	Gravitatsiya usulida boyitish haqida umumiy ma'lumotlar	2
14-ma'ruza	Cho'ktirish usulida boyitish. Cho'ktirish mashinalarinining asosiy parametrlari va ishlash tartibi	2
15-ma'ruza	Konsentratsion stolda boyitish. Konsentratsion stollarning asosiy parametrlari va ishlash tartibi	2
16-ma'ruza	Shlyuzlarda boyitish. Shlyuzlarning texnologik parametrlari va ishlash tartibi	2
17-ma'ruza	Separatorlarda boyitish. Separatorlarning texnologik parametrlari va ishlash tartibi	2
7-modul. Flotatsiya usulida boyitish		10
18-ma'ruza	Flotatsiya jarayonining nazariy asoslari	2
19-ma'ruza	Flotatsion reagentlarning klassifikatsiyasi	2
20-	Flotatsiya jarayoniga ta'sir qiluvchi omillar	2

ma'ruza		
21- ma'ruza	Flotatsion mashinalarining tasnifi	2
22- ma'ruza	Flotatsiya sxemalari	2
8-modul. Magnit usulida boyitish		4
23- ma'ruza	Magnit usulida boyitishning nazariy asoslari	2
24- ma'ruza	Magnit separatorlarining klassifikatsiyasi	2
9-modul. Elektr usulida boyitish		4
25- ma'ruza	Elektr usulida boyitish asoslari	2
26- ma'ruza	Elektr separatorlar va ularning tuzilishi	2
10-modul. Yordamchi jarayonlar		8
27- ma'ruza	Boyitish mahsulotlarini suvsizlantirish	2
23- ma'ruza	Quyultirish jarayoni	2
29- ma'ruza	Filtrlash va quritish jarayonlari	2
30- ma'ruza	Changsizlantirish jarayoni va oqava suvlarni tozalash	2
Jami:		60

2.3. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

T/r	Amaliy mashg'ulotlar mavzulari	Soat
1.	Boyitishning texnologik ko'rsatgichlarini hisoblash Mahsulotlarni chiqishi, ajralishini va boyitish darajasini aniqlashga doir misollar	2
2.	Maydalash sxemalarini tanlash va hisoblash. Maydalash sxemasini hisoblashga oid misollar	2
3.	Yanchish sxemalarini tanlash. Yanchish sxemalarini hisoblashga doir misollar.	2
4.	Elash dastgohlarini tanlash va parametrlarini hisoblash	2
5	Gravitatsiya usulida boyitishning texnologik sxemasini tanlash va hisoblash	2
6.	Flotatsiya usulida boyitishning miqdor sxemasini hisoblash	2
7.	Suv sarfi sxemasini hisoblash	2
Jami:		14

2.4. Laboratoriya ishlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

T/r	Laboratoriya ishlarining mavzulari	Soat
1.	Foydali qazilmalarni elash.	2
2.	Rudaning granulometrik tarkibini aniqlash	2

3.	Ruda bo‘laklarini o‘rtacha diametrini aniqlash.	2
4.	Rudani yanchilish darajasini aniqlash.	2
5.	Rudada namuna olish usullarini o‘rganish.	2
6.	Rudani konsentratsiya stolida boyitish.	2
7.	Rudalarni magnit usulida boyitish.	2
8.	Rudani flotatsiya usulida boyitish	2
	Jami	16

2.5. Kurs ishi (loyihasi) bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

O‘quv rejalarida kurs ishi (loyihasi) kiritilmagan.

III. Mustaqil ta‘lim va mustaqil ishlar

“Foydali qazilmalarni boyitish va qayta ishlash asoslari” fanini o‘rganuvchi talabalar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash va iqtisodiyotdagi amaliy masalalarni yechishda ko‘nikma hosil qilish uchun mustaqil ta‘lim tizimiga asoslanib, kafedra o‘qituvchilari rahbarligida, mustaqil ish bajaradilar. Bunda ular qo‘shimcha adabiyotlarni o‘rganib hamda internet saytlaridan foydalanib referatlar tayyorlaydilar, amaliy mashg‘ulot mavzusiga doir uy vazifalarini bajaradilar, ko‘rgazmali qurollar va slaydlar tayyorlaydilar.

Talaba mustaqil ishini tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanishga tavsiya etiladi.

- darslik va o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha fan mavzularini o‘rganish;
- tarqatma materiallar bo‘yicha ma‘ruzalar qismini o‘zlashtirish;
- kompyuter texnologiyalari tizimlari bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlar bo‘yicha referat va konspektlar tayyorlash;
- talabaning o‘quv va ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan adabiyotlar, monografiya va ilmiy to‘plamlarni chuqur o‘rganish;
- interaktiv va muammoli o‘qitish jarayonida faol qatnashish;
- masofaviy (distansion) ta‘limni tashkil etishda qatnashish.

Mustaqil ta‘lim

No	Mavzular nomi	soat
1.	Solishtirma yuzani aniqlash. Elaklarning elovchi yuzalari.	4
2.	Elash jarayonining kinetikasi.	4
3.	Yarim vibratsion va vibratsion elaklarning tuzilishi va ishlash	4
4.	Qutisi to‘g‘ri chiziqli harakatlanuvchi vibratsion elaklarning tuzilishi va ishlash prinsipi. Silindrik elaklar. Gidravlik elaklar.	4
5.	Bolg‘achali va rotorli maydalagichlarning tuzilishi va ishlash	4
6.	Barabanli maydalagichlar.	4
7.	Maydalagichlarni avtomatlashtirish.	4
8.	Maydalashning vopiq sikllarini ishlatishning samaradorligi.	4
9.	Yanchish jarayonini modellash. Inersion vibratsion tegirmon.	4
10.	Yanchuvchi vositaning barabanda xarakatlanish traektoriyasi.	4
11.	Barabanli tegirmon ishiga yanchuvchi vosita virikligi (og‘irligi)	4
12.	Yanchish siklini avtomatik boshqarish.	4

	13	Maydalash va yanchish sexlarining texnik iqtisodiy ko'rsatkichlarini	4
	14	Oltinni ruda va konsentratlardan ajratish.	4
	15	Qarama-qarshi oqimli separatsiya	4
	16	Elektromagnit separatorlarining tuzilishi va ishlash prinsipi	4
	17	Tashqi uzatkichli quyultirgichlarning tuzilishi va ishlash tartibi	4
	18	Barabanli va trubali quritgichlarning tuzilishi va ishlash tartibi	4
	19	Shlyuzlarning texnologik parametrlari.	4
	20	Quyultirgichlarning tuzilishi	4
	21	Quyultirgichlarning ishlash prinsipini aniqlash	4
	22	Filtrlarning tuzilishi va ishlash prinsipini aniqlash	4
	23	Changni ushlash va sanoat changini aniqlash	2
		Jami	90
	3.7. O'quv va ishlab chiqarish amaliyotlari. O'quv rejada o'quv va ishlab chiqarish amaliyotlari kiritilmagan.		
3.	IV. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • "Foydali qazilmalarni boyitish va qayta ishlash asoslari" fanini yuqori darajada rivojlantirish omillari haqida tasavvur va bilimga ega bo'lishi; • ta'lim yo'nalishlari bo'yicha qo'llaniladigan asosiy masalalarni yechish, har xil xususiyatlarini bilish va ulardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi; • talaba olib boriladigan ishni mazmun-mohiyatini bilish, ulardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.		
4.	Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • Ma'ruzalar; • Interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.		
5.	Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test topshirish.		

6.

Talabalar bilimini nazorat qilish uchun baholash mezonlari

“Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Nizom O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2018 yil 9 avgustdagi 19-2018 son buyrug‘i bilan tasdiqlangan va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2018 yil 26 sentabrda 3069-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Ushbu Nizom asosida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi orqali baholashdan maqsad O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi PQ – 3735-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi qaroriga muvofiq ta’lim sifatini boshqarish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish, talabalarning "Foydali qazilmalarni boyitish va qayta ishlash asoslari" fanini o‘zlashtirishida bo‘shliqlar hosil bo‘lishini oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishdan iborat.

“Foydali qazilmalarni boyitish va qayta ishlash asoslari” fanidan tuzilgan talabalar bilimini nazorat qilish va baholash jadvalining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

a) talabalarda Davlat ta’lim standartlariga muvofiq tegishli bilim, ko‘nikma va malakalar shakllanganligi darajasini nazorat qilish;

b) fanning asosiy tushunchalarini talabalar tomonidan tizimli tarzda va belgilangan muddatlarda o‘zlashtirilishini tashkil etish va tahlil qilish;

c) talabalarda mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish;

d) talabalar bilimini xolis va adolatli baholash hamda uning natijalarini vaqtida ma’lum qilish.

“Foydali qazilmalarni boyitish va qayta ishlash asoslari” fanidan nazorat turlari va uni amalga oshirish tartibi

Talabalarning bilim saviyasi va o‘zlashtirish darajasining Davlat ta’lim standartlariga muvofiqligini ta’minlash uchun quyidagi nazorat turlarini o‘tkazish nazarda tutiladi:

JORIY NAZORAT – talabaning fan mavzulari bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat “Foydali qazilmalarni boyitish va qayta ishlash asoslari” fanining xususiyatidan kelib chiqqan holda, amaliy mashg‘ulotlarida og‘zaki so‘rov, test o‘tkazish, nazorat ishi, mustaqil ish vazifalarini tekshirish shakllarda o‘tkaziladi;

ORALIQ NAZORAT – semestr davomida “Foydali qazilmalarni boyitish va qayta ishlash asoslari” fani ishchi o‘quv dasturining tegishli (bir necha mavzularini o‘z ichiga olgan) bo‘limi tugallangandan keyin talabaning bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli xisoblanadi. “Foydali qazilmalarni boyitish va qayta ishlash asoslari” fanidan oraliq nazorati bir semestrda bir marta yozma shaklda o‘tkaziladi;

YAKUNIY NAZORAT – semestr yakunida “Foydali qazilmalarni boyitish va qayta ishlash asoslari” fani bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni talabalar tomonidan o‘zlashtirish darajasini baholash usuli xisoblanadi. Yakuniy nazorat “Foydali qazilmalarni boyitish va qayta ishlash asoslari” fanidan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan “og‘zaki” shaklida o‘tkaziladi.

Professor-o‘qituvchilar tomonidan “Foydali qazilmalarni boyitish va

qayta ishlash asoslari” fanidan oraliq nazoratni o‘tkazish jarayoni kafedra yig‘ilishlarida davriy ravishda o‘rganib boriladi va uni o‘tkazish tartiblari buzilgan hollarda, oraliq nazorat natijalari bekor qilinadi hamda oraliq nazorat qayta o‘tkaziladi.

“Foydali qazilmalarni boyitish va qayta ishlash asoslari” fanidan yakuniy nazorat dekanat tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida o‘tkaziladi. Yakuniy nazoratni o‘tkazish tartiblari buzilgan hollarda, yakuniy nazorat natijalari bekor qilinadi hamda yakuniy nazorat qayta o‘tkaziladi.

Fan bo‘yicha baholash jadvali

2	Kurs	180	60	14	16	90	Ab Mb	Nazorat turlari							
	Semestr							Semestrda fanga ajratilgan soat	ma'ruza	Amaliy mashg'ulotlar	Tajriba mashg'ulotlar	Mustaqil ish soati	Ab-auditoriya baholari MB-mustaqil ish baholari	Jami soat % hisobida	JN
3								50	5	5	5	3	5	o.	5

“Foydali qazilmalarni boyitish va qayta ishlash asoslari fanidan” reyting ishtirokchisi

T/R	Nazorat turlari	Soni	baho	Jami baho
1. JN umumiy 5 baho				
1.1.	Amaliy mashg‘ulotlarni bajarish	7	3-5*	5
2. ON umumiy 5 baho				
2.1.	1-oraliq nazorat,yozma ish (3 ta savol)	1	3-5**	5
2.2	2-oraliq nazorat,yozma ish (3 ta savol)	1	3-5**	5
2.3.	Mustaqil ish	2	3-5**	5
ΣJN+ON				5
3. YAN				
3.1.	Yakuniy nazorat, yozma ish (5 ta savol)	1	5	5
Jami				5

“Foydali qazilmalarni boyitish va qayta ishlash asoslari” fanidan baholash tartibi va mezonlari

“Foydali qazilmalarni boyitish va qayta ishlash asoslari” fani bo‘yicha talabaning semestr davomidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 5 tizimda butun sonlar bilan baholanadi.

Ushbu 5 baho nazorat turlari bo‘yicha quyidagicha taqsimlanadi:

Yakuniy nazoratga – 5 baho. Yakuniy nazoratda 5 ta topshiriq

bo‘lib, shundan **2 ta** nazariy va **1 ta** amaliy topshiriq, 1 ta laboratoriya, 1 ta mustaqil ta’limdan beriladi, jumladan:

-auditoriyada o‘tilgan mavzular bo‘yicha **2 ta** nazariy va **1 ta** amaliy; 1 ta laboratoriya, mustaqil ishlar mavzulari bo‘yicha **1 ta** nazariy topshiriqlar beriladi.

Baholash mezonlari

* Baholash quyidagi na’munaviy mezonlarga asoslanadi:

5 – (a’lo) baho:

Xulosa va qaror qabul qilish.

Ijodiy fikrlash olish.

Mustaqil mushohada yurita olish.

Olgan bilimlarni amalda qo‘llash olish.

Mohiyatini tushunish.

Bilish,aytib berish.

Tasavvurga ega bo‘lish.

4 - (yaxshi)baho:

Mustaqil mushohada yurita olish.

Olgan bilimlarni amalda qo‘llash olish.

Mohiyatini tushunish.

Bilish,aytib berish.

Tasavvurga ega bo‘lish.

3 - (qoniqarli)baho:

Mohiyatini tushunish.

Bilish,aytib berish.

Tasavvurga ega bo‘lish.

2 - (qoniqarsiz)baho:

Dasturni o‘zlashtirmaganlik.

Fanning mohiyatini bilmaslik.

Anniq tasavvurga ega bo‘lmaslik.

Mustaqil fikrlay olmaslik.

1.1. Har bir juftlik darsiga ajratilgan baho maksimal 5 bilan baholanadi.

Joriy nazoratning mustaqil ishi uchun ajratilgan baho talabanning mustaqil ish savollariga yozma tayyorlab kelgan referati (yozma ishi, misollar yechimlari to‘plami) asosida baholanadi.

****2.1.** Oraliq baholash yozma tartibda o‘tkazilib, unda 3 ta savolga javob berilish so‘raladi. Jumladan shulardan 2 tasi nazariy va 1 tasi amaliy savollar. Har bir savolga to‘liq javob uchun 5 baho qo‘yiladi. Bunda savol uchun:

- Agar savollar mohiyati to‘la ochilgan bo‘lsa 5 baho
- Savollarga umumiy javob berilgan, ammo ayrim faktlar to‘liq yoritilmagan bo‘lsa – 4 baho
- Savollarga javob yozishga harakat qilingan, chalkashishlar bo‘lsa - 3 baho
- Savollarga umuman javob yozilmagan yoki savollarda chalkashishlar bo‘lsa – 2 baho

Oraliq nazoatning mustaqil ishi uchun ajratilgan baho talabanning mustaqil ish savollariga yozma tayyorlab kelgan referati (yozma ishi) himoyasi asosida qo‘yiladi.

Yakuniy baholashda talaba 5 ta savolga yozma javob berishi lozim.

Har bir savolga 5 baho ajratiladi.

- Agar savollarning mohiyati to'la ochilgan, asosiy faktlar to'g'ri bayon qilingan bo'lsa savolga 5 baho qo'yiladi
- Savollarga to'g'ri javob berilgan, lekin ayrim kamchiliklari bor bo'lsa savolga 4 baho qo'yiladi
- Berilgan savollarda javoblar umumiy va kamchiliklar ko'proq bo'lsa 3 baho qo'yiladi
- Savollarga to'g'ri javoblar bo'lmaganda, kamchiliklar ko'p bo'lganda va to'liq bo'lmasa 2 baho qo'yiladi.

“Foydali qazilmalarni boyitish va qayta ishlash asoslari” fanidan nazorat turlarini o'tkazish muddati

Joriy nazorat o'qituvchi tomonidan har bir (ikki) juftlik darsda baholanib boriladi. Oraliq nazorat kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat grafiklari asosida o'tkaziladi. Yakuniy nazorat semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida dekanat tomonidan tuzilgan YaN grafigi asosida o'tkaziladi.

Joriy va oraliq nazoratlarda saralash bahosidan kam baho to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'ngi joriy va oraliq nazoratlar uchun yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddatda topshirish uchun ruxsat beriladi va belgilangan tartibda qabul qilinadi.

Kasalligi sababli darslarga qatnashmagan hamda belgilangan muddatlarda joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarni topshira olmagan talabalarga fakultet dekani farmoyishi asosida, o'qishni boshlaganidan so'ng ikki hafta muddatda topshirishga ruxsat beriladigan grafik asosida joriy, oraliq va yakuniy nazoratlari qabul qilinadi.

Talabaning semestrda joriy va oraliq nazorat turlari bo'yicha to'plangan baholaridan biri qoniqarsiz deb topilsa u yakuniy nazorat ishiga kiritilmaydi.

Akademik qarzidor talabalarga semestr tugaganidan keyin dekanat tomonidan qayta o'zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. Shu muddat davomida “Foydali qazilmalarni boyitish va qayta ishlash asoslari” fanini o'zlashtira olmagan talaba to'g'risida fakultet dekaniga ma'lumot beriladi.

Talaba “Foydali qazilmalarni boyitish va qayta ishlash asoslari” fani bo'yicha nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, u nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyasiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi kafedra mudiri tomonidan nazorat qilinadi.

7.

Adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar:

1. Umarova I.K., Solijonova G.Q. Foydali qazilmalarni boyitish va qayta ishlash. O'quv qo'llanma. — T.: Cho'lpon, 2009.
2. Xasanov A.S, Saidaxmedov A.A, Shodiyev A. N, Xo'jamov U.U, Eshonqulov U.X, Pirnazarov F.G, Gravitatsiya usulida boyitish O'quv qo'llanma — T.: QarMII 2022,
3. Saidaxmedov A.A, Karimov Yo.L, Shodiyev A. N, Foydali qazilmalarni boyitish jarayonlari. O'quv qo'llanma— T.: Voris, 2019
4. Saidaxmedov A.A, Azimov O.A, Shodiyev A. N, Turobov Sh. N Foydali qazilmalarni boyitish jarayonlari. O'quv qo'llanma— T.: Intellect, 2021

Qo'shimcha adabiyotlar

5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik Uzbekistan davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekistan Respublikasi Prezidentining lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. -T.: "O'zbekistan" IMIU, 2016. - 56 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekistan Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza 2016 yil 7 dekabr. - T.: "O'zbekistan" NMIU, 2016. - 48 b.
7. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: "O'zbekistan" NMIU, 2017. - 488 b.
8. Peuker U.A., Kwade A., Teipel U., Jeckel G., Mutze T. Mineral processing. Mineral, renewable and secondary raw material processingcurrent engineering challenges. Dechema. Germany, 2012. 280 p.
9. Авдохин В.М. "Технология обогащения полезных ископаемых". Учебник в 2т,- М.: МГТУ, 2005.
10. Solijonova G.Q., Bekpo'latov J.M. Foydali qazilmalarni boyitish va qayta ishlash. Uslubiy qo'llanma. — T.: TDTU, 2016.

Internet saytlari

<http://www.mining.ite-uzbekistan.uz/ru>
<http://www.minenet.com-Mining>
<http://www.Rls.ru>
<http://www.tlibrary.ru/menuinfo.asp>
<http://www.yak.uz>
http://www.yelibrary.ru/menu_info.asp – ilmiy elektron kutubxona.
<http://mggu.da.ru> – Moskva davlat konchilik universiteti.
<http://www.mining-journal.com/mj/MJ/mj.htm> - Mining Journal
<http://info.uibk.ac.at/c/c8/c813> - Institute of Geotechnical and Tunnel engineering
<http://www.rsl.ru> – Rossiya davlat kutubxonasi.
http://www.rsl.ru/r_frame.asp?http://www.yedd.ru –elektron adabiyotlar nushasi.
<http://www.minenet.com> – Mining kompaniyes.

Davriy nashrlar:

"O'zbekiston konchilik xabarnomasi" – "Горный вестник Узбекистана", "TDTU Xabarlari", "Texnika yulduzlari", "Узбекский геологический журнал", "Горный

	журнал”, “Горный информационный аналитический бюллетень”, “Физико-технические проблемы горного дела”, “Подземные и шахтные строительства”, “Уголь”, “Минеральные ресурсы”, “Mining Jornal”, “Miningin Canada”, “Miningand metallurgy”, “Mining Technology”).
8.	Fan uchun mas’ul kafedra: Konchilik ishi Instruktor: Eshonqulov U.X.– QarMII, “Konchilik ishi” kafedrası katta o‘qituvchisi Olomov F.M. – ToshDTU, “Ko‘mir va qatlamli konlar geotexnologiyasi” kafedrası doktoranti Kafedra joylashgan joyi: QarMII, Geologiya va Konchilik ishi fakulteti binosi Telefon: +998904433399 mail: uchqun.eshonqulov91@mail.ru.
9.	Fanning ishchi o‘quv dasturi o‘quv, ishchi o‘quv reja va Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti Kengashining 2022 yil “___” ___dagi ___- sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan o‘quv dasturga muvofiq ishlab chiqildi
	Fanning ishchi o‘quv dasturi (sillabusi) “Konchilik ishi” kafedrasining 2022 yil “___” ___dagi “___” -son yig‘ilishida hamda “Geologiya va konchilik ishi” fakulteti Uslubiy Komissiyasining 2022 yil “___” ___dagi “___” -son yig‘ilishida muhokama qilinib Institut Uslubiy Kengashiga tavsiya etilgan. Kafedra mudiri: _____ A.N.Shodiyev Institut Uslubiy Kengashining 2022 yil “___” ___dagi___ -sonli qarori bilan o‘quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan. Geologiya va konchilik ishi fakulteti dekani _____ T.N.Yarboboyev. Kelishildi: O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i: _____ Sh.Turdiyev